



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI HUZURIDAGI
TRANSPORT NAZORATI INSPEKSIYASI

BUYRUQ

2025-yil 4 - yanvar

2 -sonli

Toshkent sh.

**“Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi
xabarnoma, ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi
to‘g‘risidagi deklaratsiyalar va manfaatlar
to‘qnashuvini hisobga olish reyestrining
namunaviy shakllarini tasdiqlash haqida”**

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2024-yil 21-oktabrdagi 65-son [O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 5-noyabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3569] buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-son Qonuni 2024-yil 6-dekabrda kuchga kirganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2024-yil 21-oktabrdagi 65-son [O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 5-noyabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3569] buyrug‘i ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
3. Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma, ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar va manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reyestrining namunaviy shakllari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘limi (Ruzmetova) O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni 18-moddasiga asosan hamda O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasi va hududiy bo‘limlarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha (Transport nazorati inspeksiyasining 2024-yil “26” apreldagi 230-son buyrug‘iga 3-ilova) Nizomda belgilangan

muddatlarda mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnoma va ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalarni namunviy shakllar asosida to'ldirilib, barcha xodimlardan yig'ib olinishi, hisobini yuritilishi hamda tahlil qilib chiqilishi ta'minlansin.

5. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul xodim (O'.Ochilov) yig'ib olingan va tahlil qilib chiqilgan deklaratsiyalarda manfaatlar to'qnashuvi holatlari yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xodimlar aniqlansa, bunday xodimlar haqidagi ma'lumot Inspeksiyaning Odob-ahloq komissiyasiga kiritilsin.

6. Mazkur buyruqni nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.


Boshliq



J.Karimov

KIRITILDI:


Bosh mutaxassis



O'.Ochilov


KELISHILDI:

Bo'lim boshlig'i




Sh.Ruzmetova

Bo'lim boshlig'i



Sh.Jurayev

Bosh mutaxassis



D.Fazilova

**Mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnoma, ehtimoliy manfaatlar
to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalar va manfaatlar to'qnashuvini hisobga
olish reyestrining
NAMUNAVIY SHAKLLARI**

Ushbu namunaviy shakllarda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi (bundan buyon matnda xodim deb yuritiladi) – davlat organlarida va mahalliy davlat hokimiyati organlarida, davlat muassasalarida, davlat unitar korxonalarida, davlat maqsadli jamg'armalarida, shuningdek ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida yoxud saylab qo'yiladigan yoki tayinlanadigan lavozimlarda mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan boshqaruv xodimi;

xodimga aloqador shaxslar (bundan buyon matnda aloqador shaxslar deb yuritiladi) – xodimning yaqin qarindoshlari hamda xodim va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxs;

manfaatlar to'qnashuvi – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat;

yaqin qarindoshlar – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

**1-bob. Mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnomaning
NAMUNAVIY SHAKLI**

_____ga
(bevosita rahbarning lavozimi va F.I.O.)

_____dan
(xodimning lavozimi va F.I.O.)

**Mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi
XABARNOMA**

Men ushbu xabarnomada o'zim va menga aloqador shaxslarning mavjud manfaatlar to'qnashuviga oid quyidagi ma'lumotlar to'g'risida xabar beraman:

1. Xodimga oid ma'lumotlar

1.	Identifikatsiya ID-kartasi yoki biometrik pasport ma'lumotlari (seriyasi, raqami, berilgan sanasi)	
2.	Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR) (mavjud bo'lgan taqdirda)	

2. Aloqador shaxslarga oid ma'lumotlar*

Xodimning yaqin qarindoshiga oid ma'lumotlar		
1.	Familiya, ismi, otasining ismi	
2.	Identifikatsiya ID-kartasi yoki biometrik pasport ma'lumotlari (seriyasi, raqami, berilgan sanasi)	
3.	Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR) (mavjud bo'lgan taqdirda)	
Xodim qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxsga oid ma'lumotlar		
1.	Yuridik shaxsning nomi	
2.	Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR)	
Xodimning yaqin qarindoshi qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxsga oid ma'lumotlar		
1.	Yuridik shaxsning nomi	
2.	Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR)	

*Xodim unga aloqador shaxslarning (xodimning yaqin qarindoshlari yoki xodimning yaqin qarindoshlari ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qiladigan yoxud boshqaruv organi rahbari yoki a'zosi bo'lgan yuridik shaxs) identifikatsiya ID-kartasi (biometrik pasporti), JSHSHIR, STIR bo'yicha ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'lmasa, u tomonidan tegishli pozitsiyalarda "ma'lumotga ega emasman" deb izoh ko'rsatilishi mumkin.

3. Mavjud manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha ma'lumot

1.	Mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida ma'lumot	
----	--	--

Xodimning lavozimi

Shaxsiy imzo yoki elektron
raqamli imzosi

(Xodimning F.I.O.)
To'ldirilgan sana 20__ yil "___" _____

Xodimning bevosita rahbari

Mavjud manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha ko'rilgan chora:

Xodimning bevosita
rahbarining lavozimi

Shaxsiy imzo yoki elektron
raqamli imzosi

(Xodimning F.I.O.)
To'ldirilgan sana 20__ yil "___" _____

Mavjud manfaatlar to'qnashuvi aniqlangan holatlar Manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reyestrda ro'yxatga olingan sanasi va tartib raqami: 20__ yil "___" _____-son.

**2-bob. Xodimning ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi
deklaratsiyacining
NAMUNAVIY SHAKLI**

Men, _____ ushbu
(familiyasi, ismi, otasining ismi va uning lavozimi)

(yillik/ishga qabul qilinayotganda/boshqa ishga o'tkazilayotganda)

to'ldirayotgan deklaratsiyada o'zim va menga aloqador shaxslarning ehtimoliy manfaatlar to'qnashuviga oid quyidagi ma'lumotlarni oshkor qilaman:

1. Xodimga oid ma'lumotlar

1.	Identifikatsiya ID-kartasi yoki biometrik pasport ma'lumotlari (seriyasi, raqami, berilgan sanasi)	
2.	Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR) (mavjud bo'lgan taqdirda)	

2. Aloqador shaxsga oid ma'lumotlar*

Xodimning yaqin qarindoshiga oid ma'lumotlar				
Qarindosh- ligi	Familiya, ismi, otasining ismi	Identifikatsiya ID-kartasi yoki biometrik pasport ma'lumotlari (seriyasi, raqami, berilgan sanasi)	Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR) (mavjud bo'lgan taqdirda)	Ish joyi va lavozimi
Qatorlar soni yetarli bo'lmaganda, alohida yoki keyingi ilovada to'ldiriladi				

Xodim qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxsga oid ma'lumotlar

1.	Yuridik shaxsning nomi	
2.	Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR)	

Xodimning yaqin qarindoshi qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxsga oid ma'lumotlar		
1.	Yuridik shaxsning nomi	
2.	Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR)	

*Xodim unga aloqador shaxslarning (xodimning yaqin qarindoshlari yoki xodimning yaqin qarindoshlari ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qiladigan yoxud boshqaruv organi rahbari yoki a'zosi bo'lgan yuridik shaxs) identifikatsiya ID-kartasi (biometrik pasporti), JSHSHIR, STIR bo'yicha ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'lmasa, u tomonidan tegishli pozitsiyalarda "ma'lumotga ega emasman" deb izoh ko'rsatilishi mumkin.

3. Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumot _____

4. Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyada ko'rsatilishi kerak bo'lgan ma'lumotlardan tashqari qo'shimcha ma'lumotlar (agar mavjud bo'lsa)

(xodim tomonidan manfaatlar to'qnashuvi vaziyati sifatida baholanadigan boshqa holatlar ko'rsatiladi)

Xodimning lavozimi

Shaxsiy imzo yoki elektron
raqamli imzosi

(Xodimning F.I.O.)
To'ldirilgan sana 20 ____ yil " ____ " ____

Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi aniqlangan holatlar Manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reyestrda ro'yxatga olingan sanasi va raqami: 20 ____ yil " ____ " ____; reyestr raqami ____-son.

3-bob. Aloqador shaxslarning ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyaning namunaviy shakli

Men _____, ushbu deklaratsiyada aloqador shaxs
(familiyasi, ismi va sharifi)
sifatida o'zim va xodim (ishga kirayotgan nomzodning) ehtimoliy manfaatlar
to'qnashuviga oid quyidagi ma'lumotlarni ma'lum qilaman:

1.	Xodimga aloqador jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR)	
3.	Xodimga aloqador yuridik shaxsning nomi	
4.	Xodimga aloqador soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR)	
5.	Xodimning F.I.O. va lavozimi	
6.	Jismoniy shaxsning xodim bilan qarindoshligi to'g'risidagi ma'lumotlar (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari)	
7.	Yuridik shaxsning xodim bilan aloqadorligi to'g'risidagi ma'lumotlar (xodim va uning uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxs)	

Aloqador shaxs

Shaxsiy imzo yoki elektron
raqamli imzosi

(F.I.O.)

To'ldirilgan sana 20__ yil "___" _____

Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi aniqlangan holatlar Manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reyestrda ro'yxatga olingan sanasi va raqami: 20__ yil "___" "___"; reyestr raqami № ____.

**4-bob. Manfaatlari to'qnashuvini hisobga olish reyestri
NAMUNAVIY SHAKLI**

T/r		
		Ma'lumot olingan sana
1	2	
1.	3	Mavjud yoki ehtimoliy manfaatlari to'qnashuvi holatlarini reyestrga kiritgan xodimning F.I.O.
2.	4	Xodim faoliyat yuritayotgan tarkibiy bo'linmaning nomi va uning lavozimi
...	5	Manfaatlari to'qnashuviga oid qisqacha ma'lumot
	6	Manfaatlari to'qnashuvining turi (mavjud yoki ehtimoliy)
	7	Manfaatlari to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha ko'rilgan choralar
	8	Maxsus bo'linma tomonidan qabul kilingan xulosa raqami va sanasi, Odob-ahloq komissiyasi yig'ilish bayonnomasi raqami va sanasi
	9	Ko'rilgan choralarning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish bo'yicha mas'ul shaxs
	10	Maxsus bo'linma xodimining o'z qo'li bilan qo'yilgan imzosi yoki elektron raqamli imzosi va sana